

**HADISLARDA HALOL MEHNAT VA KASB-HUNARGA OID
KO'RILGAN MASALALAR**

**ISSUES RELATED TO HONEST WORK AND PROFESSION RAISED IN
HADITHS**

**ВОПРОСЫ, СВЯЗАННЫЕ С ЧЕСТНЫМ ТРУДОМ И ПРОФЕССИЕЙ,
ПОДНЯТЫЕ В ХАДИСАХ**

Majidov Husan Abdijalil o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali Telekomunikatsiya va texnologiyalari
va kasb ta'lim fakulteti R1 23-10 guruh talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada halol mehnat qilish kerakligi va bu orqali Allohning rahmatiga erishish mumkinligini hadislar orqali insonlarga yetkazish talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Rizq, hadis, rivoyat, taloq, halol rizq va harom rizq, oyat

Barcha yomon va bema'ni ishlar ham aslida bekorchilik va ishsizlikdan kelib chiqadi. Shuning uchun har bir kishi mustaqil kasb-hunar sohibi bo'lishga harakat qilishi lozim. Kasb-hunari qaysi sohaga oid bo'lishidan qat'iy nazar. Muqaddas dinimiz islom dini ham bu muhim jihatni e'tiborsiz qoldirmagan. O'tgan barcha payg'ambarlar ham o'zlari mustaqil kasb-hunar bilan shug'ullanib, o'z ummatlariga halol kasb qilish borasida chiroyli namuna bo'lishgan.

Xususan, Odam alayhissalom dehqon bo'lganlar va shu bilan birga birinchi murabbiy hamdirlar. Nuh alayhissalom duradgor bo'lgan, Dovud alayhissalom mohir temirchi bo'lib, mustahkam sovutlar yasaganlar, Muso alayhissalom sakson yil qo'y boqqanlar. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam ham payg'ambar bo'lmasliklaridan avval qo'y boqqan va tijorat bilan shug'ullanganlar. Qur'oni Karimda halol kasb qilish haqida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: "U (Alloh) sizlarga yerni xokisor (bo'ysunuvchi) qilib qo'ygan zotdir. Bas u Yerning har tomonida (sayohat, tijorat yoki dehqonchilik qilib) yuraveringiz va



(Alloh) bergan rizqlardan tanovul qilingiz, (Qiyomat kuni) tirilib chiqish Uning huzurigadir”¹.

Hadisi shariflarda ham Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bizlarga halol kasb haqida quyidagilarni aytganlar: “Men Makkaliklarning qo‘ylarini boqar edim” Imom Buxoriy rivoyati.

“Darhaqiqat, Alloh kasb bilan shug‘ullanuvchi kishini yaxshi ko‘radi”. Imom Termiziy rivoyati.

“Shubhasiz sizlarning biringiz arqon olib, yelkasida o‘tin kesib kelishi odamlardan so‘rashidan – so‘ragan narsasini bersalar ham, bermasalar ham – yaxshiroqdir”. Imom Buxoriy rivoyati.

“Hech kim o‘z qo‘li bilan ishlab topgan taomdan ham yaxshiroq taom yemagan”. Ibn Mojja, Ahmad va Buxoriy rivoyati.

“Halol kasb farzdan keyingi farzdir”. Tabaroniy va Bayhaqiy rivoyati. Payg‘ambarimizning o‘zlari ham Shomga ikki bor tijorat uchun safar qilganlar. Dinimiz kasb-hunarni qadrlaydi va kishining o‘z qo‘li bilan qilgan kasbini Allohga yaqinlashtiruvchi eng afzal va sharaflil amal deb hisoblaydi.

Umar ibn Xattob roziyallohu anhu ishlaymaydigan odamlarni uchratib, ulardan nega ishlaymaysizlar deb so‘rabdilar. Shunda ular: “Biz Allohga tavakkul qilamiz”, – deb javob beribdilar. Umar ibn Xattob ularga: “Yo‘q, yolg‘on, Allohga haqiqiy tavakkul qiluvchi kishi avval yerga don ekib qo‘yib, so‘ng Allohga tavakkul qiladi. Hech biringiz ey Alloh menga rizq ber deya, rizq izlamay o‘tirib olmasin. Holbuki osmondan na oltin va na kumush yog‘ilur”²– deb aytgan edilar.

Said ibn Mansur Ibn Mas‘uddan rivoyat qiladi, u kishi dedi: “Men na dunyo va na oxirat ishi bilan mashg‘ul bo‘lmagan bekorchi kishini ko‘rishni yomon ko‘raman”.

Yana xalifa Umar ibn Xattob roziyallohu anhu: “Men bir kishini ko‘raman, u menga yoqadi, so‘ng undan hunaring bormi deb so‘rayman. Agar u yo‘q desa o‘sha kishi nazarimdan qoladi” – degan.

Demak, dinimiz kasb-hunar egallashga, jamiyatga foydasi tegadigan ish bilan shug‘ullanishga katta e‘tibor bergan, bekorchilikni esa qattiq tanqid qilgan va kasb-hunar o‘rganish, ilm olishga nafaqat undagan, balki buyurgan. Bu maqsadga erishish yo‘lida ota-ona farzandiga bolaning salohiyati va qobiliyatlarini hisobga olgan holda

¹ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/halol-kasb-paygambarlar-sunnati>

² <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/halol-kasb-paygambarlar-sunnati>



yoshligidanoq kerakli ko‘rsatmalarni berib, ilm olishi va kasb-hunar egallashi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim.

Mehribon va rahmli Alloh bandalariga halol kasb qilishni va haromdan qochishni amr etdi. Sevikli Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) halol kasb qilish va halol yashash yo‘llarini ummatlariga tushuntirib, o‘z hayotlarida amalga oshirib, ko‘rsatib berdilar.

Alloh taolo Qur‘oni karimda muomalotning umumiy qoidalarini bayon qildi. Payg‘ambarimiz (alayhissalom) ularning tafsilotini tushuntirdilar. Musulmonlar namoz masalalarini nechog‘li o‘rgangan bo‘lsalar, savdo masalalarini ham shunchalik o‘rganishdi.³

Ahli sunna val-jamoa mazhabi ulamolari ta‘rificha, “Alloh taolo maxluqotlariga – odamlar va hayvonlarga bergan va ular manfaat olgan dunyoviy va uxroviy har bir narsa rizqdir”. Alloh taolo katta yoki kichik har bir insonga, har bir hayvonga bergan va ular foydalanadigan yemak, ichmak, kiyim yoki uy-joy ularning rizqidir.

Rizq ikki qismga taqsimlanadi: halol rizq va harom rizq. Bunga dalil Baqara surasining 172-oyatidir: “Ey imon keltirganlar, Allohgagina ibodat qiluvchi bo‘lsangiz, sizlarga Biz rizq qilib bergan pokiza narsalardan yenglar va Unga shukr qilinglar!”⁴

Rizqni halol kasb orqali talab qilish

“Bas, namoz tugaganidan so‘ng yer yuzi bo‘ylab tarqaling va Allohning fazlidan talab qiling va Allohni ko‘p eslang, shoyadki, yutuqqa erishsangiz”⁵ (Jum‘a, 10). Ya‘ni, Alloh taolo bu oyati karimada mo‘min musulmonlarni namozni ado etgach, yer yuziga tarqalib, halol yo‘l bilan rizq topishga targ‘ib qilmoqda va bu ishni Alloh taoloning fazlidan talab qilish, deb nomlamoqda. Namozdan keyin kim savdosiga, kim kasal ko‘rgani, kim ilm talabiga – har kim o‘z ishiga qaytishi mumkin. Chunki yer yuzi bo‘ylab tarqalish buyrug‘i majburiy emas. Lekin ba‘zi kishilar bu amrga jiddiy amal qilishgan. Ibn Abu Xotimdan rivoyat qilinadi. Irok ibn Molik (roziyallohu anhu) juma namozidan so‘ng masjid eshigidan chiqarkanlar: “Ey bor Xudoyo, men da‘vatingga javob qildim, farz namozingni o‘qidim va aytganingdek yer yuziga tarqalдим. Menga O‘z fazlingdan rizq bergin, Sen eng yaxshi rizq beruvchisan”, der ekanlar. Qur‘oni karimda bu ma‘nodagi boshqa oyatlar ham mavjud. Jumladan, Mulk surasining 15 oyatida aytiladi: “U (Alloh) sizlarga yerni

³ <http://hazratnavoi.uz/maqolalar/4866-halol-savdo-kasblarning-eng-yaxshisi.html>

⁴ <http://hazratnavoi.uz/maqolalar/4885-halol-savdo-kasblarning-eng-yaxshisi.html>

⁵ <https://islom.ziyouz.com/maqola/halol-savdo-kasblarning-eng-yaxshisi>



xoksor (bo‘ysunuvchi) qilib qo‘ygan zotdir. Bas, u(Yer)ning har tomonida (sayohat, tijorat yoki dehqonchilik qilib) yuraveringlar va (Allohning bergan) rizqidan yenglar. Tirilib chiqish Uning huzurigadir”.

Ulamolarimiz qadimdan ushbu oyati karimaning tafsirini Islomda mehnatga chorlash, rizq terish maqsadida yer yuzining turli joylarida harakat qilish joizligiga dalil qilib keltirishadi. Bu oyatdagi “yuring” degan xitob musulmonlarni doimo kasb-korga undagan va dangasalik, bekorchilikdan chetlanishga chaqirgan. Shu bilan birga, rizq Alloh taolodan bo‘lishini unutmazlik zarurligini eslatgan. Ya’ni, musulmon odam yer yuzida rizq talabida bo‘lishi va halol yo‘l bilan kasb qilishi kerak.

Alloh taolo: “Kunduzni esa tirikchilik (vaqti) qildik”, deydi (Naba’, 11). Bu ham maosh, rizqu ro‘z topish uchun harakat qilish zarurligini bildiradi. O‘sha harakatga kasb qilish deyiladi. Ulamolarimiz kasbni shunday ta’riflashadi: “Kasb maqsadni hosil qilish uchun harakat etish va unga sabab bo‘ladigan narsalarni ishga solishdir”. Shuningdek, ular tavakkul ta’rifida: “Dunyo va oxirat ishlarida foydani jalb qilish hamda zararni daf etishda qalbning Alloh taologa sidqidildan e’timod qilishi”, deyishadi. Ahli sunna val jamoa mazhabi bo‘yicha, tavakkul qalbg va kasb a’zolariga bog‘liq ish bo‘lib, sabablarni ishga solmaguncha, tavakkul hosil qilinmaydi.

Buyuk vatandoshimiz Hakim Termiziy Muoviya ibn Qurradan rivoyat qiladi: Umar ibn Hattob bir guruh odamlarga yo‘liqib qolib: “Sizlar kimsizlar?” deb so‘radi. “Tavakkul qiluvchilarmiz”, deyishdi. “Yo‘q, sizlar tekinxo‘rlarsiz, tavakkul qiluvchi avval donni yerga sepib qo‘yib, keyin Allohga tavakkul qiladi”, dedi.

Bu o‘rinda tavakkul qilish bilan birga sabablarini ham puxta bajarish kerakligi bayon qilinmoqda. Hazrat Umardan (roziyallohu anhu) rivoyat qilinadi: “Nabiy (sollallohu alayhi va sallam): “Agar sizlar Allohga haqiqiy tavakkul qilsangiz, U Zot och ketib, to‘q qaytadigan qushlarni rizqlantirgani kabi sizlarni rizqlantiradi”, dedilar”. Bu hadisi sharifda, agar bandalar Alloh taologa haqiqiy tavakkul qilsalar, suyansalar, xuddi hech qanday jamg‘armaga ega bo‘lmagan qushlarga kerak bo‘lgan paytda rizq bergan Roziq subhanahu va taolo ularga ham rizq berishi aniq ekani haqida so‘z ketmoqda. Faqat, qush uyasidan chiqib, rizqini topishga harakat etganidek, bandalar ham kerakli harakatni qilishlari lozim.



Harom kasb, harom rizqning yomon oqibati

To'g'ri kelgan narsani surishtirmay, o'ziniki qilib olish, undan foydalanish hayvonga xosdir. Inson halol haromni ajratishi bilan hayvondan farq qiladi. Musulmon kishi haromdan hazar qilishda o'ta mas'uliyatli bo'lishi kerak. Aks holda, uni dunyoda ham, oxiratda ham yomon oqibat kutadi.

Abu Hurayradan (roziyallohu anhu) rivoyat qilinadi: "Nabiy (sollallohu alayhi va sallam) "Odamlarga bir zamon keladiki, unda kishi molni qanday qo'lga kiritganiga, haloldan yo haromdan topganiga e'tibor qilmaydi", dedilar.

Nohaq, harom yo'llar bilan kasb qilish ommaviylashib ketsa, xunuk oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqidagi fikrlar ba'zi kishilar o'ylab topgan oddiy gaplar emas. Alloh taolo: "Mol(mulk)laringizni o'rtalaringizda botil(yo'llar) bilan emangiz!" (Baqara, 188), deb marhamat qiladi. Ya'ni, bir biringizning molingizga, haqingizga xiyonat qilmang.

Imom Tabaroniy rivoyat qilgan hadisda Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) aytdilar: "Qiyomat kunida ayrim kishilarni olib kelishadi. Ularning Tuhoma tog'icha keladigan yaxshiliklari bo'ladi. Ular keltirilgach, Alloh ularning yaxshiliklarini to'zg'igan g'uborga aylantirib qo'yadi, o'zlari esa do'zaxga uloqtiriladi". "Yo Rasululloh, bunday bo'lishining boisi nedir?" deb so'rashdi. "Ular namoz o'qir, ro'za tutar, haj qilar edilar, biroq biron bir harom narsaga duch kelsalar, uni olishar edi. Shu bois Alloh ularning amallarini behuda qiladi", deb javob berdilar.

Demak, harom yeyuvchi kishilarning amallari behuda bo'ladi va o'zlari do'zaxga uloqtiriladi. Bundanda yomon oqibat bo'lmas kerak!

Tarixga nazar soladigan bo'lsak Odam (a.s) dehqonchilik, Idris (a.s) xattotlik, Nuh (a.s) durodgarlik, Dovud (a.s) esa temirchilik bilan shug'ullanishgan. Payg'ambarlar mehnat bilan shug'ullanib bizlarga o'rnak bo'lgan ekan, bizlar ham o'zimiz yoqtirgan kasbning ustasi bo'lib, oilamizni halol pokiza rizq bilan boqishimiz kerak.

Halol mehnat kishini ulug'laydi va jannat tamon yetaklaydi. Tabaroniy rivoyat qilgan xadisda Payg'ambarimiz(s.a.v) shunday marhamat qilganlar: "Gunohlar ichida shundaylari borki, unga faqat halol rizq topish maqsadida qilingan harakatgina kafforat bo'ladi". Shunday ekan kelajagimiz bo'lmish jondan aziz farzandlarimizga halol kasb hunar o'rgatib, hech qachon o'zgalarning xaqqiga ko'z tikmaydigan, vatani, xalqi, dini uchun jon fido qiladigan ruhda tarbiya qilmog'imiz lozim. Bugungi kunda xoriyga borib ishlashning xech keragi yo'q. Halol mehnati bilan pul topib, oila tebratgan, ota-otasini muborak xaj safariga yuborayotgan farzandlarning son-sanog'i yo'q. O'zbekistondek jannat makon yurtning farzandi



bo‘lishdek baxtni teran anglagan holda, shunday yurtning qadriga yetib yashash xammamizga nasib etsin. Omin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
2. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
3. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
4. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
5. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
6. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
7. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.

